

DIVERGENT TAFAKKURNING XUSUSIYATLARI VA TA'LIMDAGI AHAMIYATI

Bekchanova Soliha Davlatnazarovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22704945>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 10-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 11-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Ushbu maqolada divergent tafakkur tushunchasining psixologik va pedagogik asoslari, uning tarkibiy xususiyatlari hamda tibbiy ta'lim jarayonidagi amaliy ahamiyati tahlil etilgan. Tadqiqotda divergent tafakkur – bu erkin, moslashuvchan, original fikr yuritish orqali muammoning bir nechta yechimlarini topishga qaratilgan tafakkur shakli ekanligi asoslab berilgan. Ayniqsa, tibbiy ta'limda talabalarning kasbiy fikrlash madaniyatini rivojlantirish, klinik holatlarni kreativ tahlil qilish va noodatiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishda divergent tafakkurning o'рни beqiyosdir. Maqolada shuningdek, bu tafakkur turini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interaktiv metodlar, simulyatsion mashg'ulotlar, ochiq muammoli topshiriqlarning samaradorligi ko'rsatib berilgan. Divergent tafakkur tibbiyot sohasida zamonaviy va kompetensiyaviy yondashuvning muhim omili sifatida talqin qilinmoqda.

Kalit so'zlar.

divergent tafakkur, kreativ fikrlash, tibbiy ta'lim, klinik muammolar, original yondashuv, talabaning kasbiy rivoji, simulyatsiya, muammoli topshiriq, tibbiy kompetensiya, fikrlash moslashuvchanligi.

KIRISH. Zamonaviy tibbiy ta'limda shifokor shaxsini shakllantirishda faqat nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar emas, balki keng fikrlash doirasi, muammoga kreativ yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, global tibbiyot tizimida yuzaga kelayotgan murakkab va oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan holatlar zamonaviy shifokordan innovatsion fikrlash, vaziyatga moslashish va noodatiy yechimlarni taklif qilishni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, divergent tafakkur tibbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Divergent tafakkur — bu bir muammo yoki masalaga bitta emas, balki bir nechta yechimni ko'rish, erkin, moslashuvchan va original fikrlash imkonini beruvchi kognitiv jarayondir. Mazkur tafakkur turi talabaning ijodkorligini, kasbiy refleksiya va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. U, ayniqsa, klinik tahlillar, diagnostika, davolash algoritmlarini tuzish, bemor bilan noan'anaviy muloqot o'rnatish jarayonlarida faol namoyon bo'ladi.

Divergent tafakkur — bu faqat ijodiy fikrlash qobiliyati emas, balki tibbiy ta'limda murakkab klinik muammolarni hal etish, noan'anaviy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishda hal qiluvchi o'rin tutadigan tafakkur shaklidir.

Tibbiy ta'limda divergent tafakkur nafaqat talabaning individual intellektual salohiyatini rivojlantiradi, balki uning kasbiy yetukligini ta'minlaydi. Ta'kidlash joizki, mazkur turdagi tafakkur yuqori darajadagi tahlil, muqobil yechimlarni topish, noaniq va stressli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Divergent fikrlashning xususiyatlari va uning tibbiy ta'limdagi ahamiyati xorijlik olimlar tomonidan atroflicha tahlil qilingan. Asosiy e'tibor ijodkorlik, moslashuvchanlik va innovatsion muammolarni hal qilishning ta'lim tizimi va klinik amaliyotga integratsiyalashuviga qaratilgan.

Xorijlik tadqiqotchilar odatda quyidagi asosiy xususiyatlarni ajratib ko'rsatishadi:

G'oyalar erkin oqimi va moslashuvchanlik. Joy Pol Guilford kabi tadqiqotchilar birinchi bo'lib, divergent tafakkur kontseptsiyasini shakllantirib, uning ijodkorlik va g'oyalarni shakllantirishdagi rolini, shu jumladan ravonlik va moslashuvchanlikni asosiy atributlar sifatida ta'kidladilar. Ellis Pol Torranc tomonidan ishlab chiqilgan ijodiy tafakkurni aniqlash testida (TTCT) o'lchash mumkin bo'lgan xususiyatlar sifatida erkin g'oyalar (hosil qilingan g'oyalar soni) va moslashuvchanlikni (turli yondashuvlar qatori) ta'kidlanadi.

Originallik va yangicha yondashuv. Garvard universiteti tadqiqotchisi Tereza Amabayl ta'lim kontekstida ijodkorlikka e'tibor qaratadi, o'ziga xoslik va innovatsiyalarni odamlarga o'ziga xos va samarali yechimlar yaratish imkonini beruvchi asosiy xususiyatlar sifatida ta'kidlaydi.

Mark A. Rankoning tadqiqotlari o'ziga xoslikni tizimli ravishda tahlil qilib, uning tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasidagi yangi yechimlarni aniqlashdagi muhim rolini ta'kidlaydi.

Ishlab chiqish va murakkablik. Robert Sternbergning triarxiya nazariyasi bo'yicha tadqiqotlari divergent tafakkurning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqish va murakkab kognitiv jarayonlarni, jumladan, uning batafsil kengayishi va amaliy qo'llanilishini ta'kidlaydi.

Nomuayyanlilikka bardoshlilik. Psixologiya va ijodkorlik bo'yicha nufuzli amerikalik olim Din Keyt Simonton (Dean Keith Simonton) ijodiy tafakkur, geniallik, divergent fikrlash hamda shaxsiylik va ijtimoiy muhit ta'siri haqidagi fundamental nazariyalari bilan mashhur. Ta'kidlash joizki, u divergent tafakkurni tadqiq qilgan olim, shuningdek bu jarayonni ijodiylikning asosiy mexanizmi sifatida tushuntirib bergan. Uningcha ijodiylik – divergent fikrlashning mahsuli. Olim ijodiy shaxsning fazilatlarini quyidagicha tavsiflagan: muammoga yangicha qarash bilan yondashadi; fikr yuritishda standart yondashuv chegarasidan chiqadi; muammoning bir necha imkoniy yechimlarini ko'radi va sintez qila oladi. Din Keyt Simontonning bu fikrlari divergent tafakkurga to'la mos keladi, deb aytish mumkin. Shu o'rinda olimning "ko'r-ko'rona o'zgarish va tanlab qolish" (BVSР-Blind Variation and Selective Retention) nazariyasi xususida bir oz to'xtalib o'tish joizdir. Uningcha, ijodiy jarayonda odam dastlab ko'plab (divergent) g'oyalarni yaratadi — bu jarayon ko'pincha intuitiv va turli yo'nalishlarda bo'ladi. Undan so'ng tanlab olish va saralash bosqichi (konvergent fikrlash) amalga oshadi. Simontonning tadqiqotlari asosida divergent tafakkurni rivojlantirishning shaxsiy omillari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin: har qanday yangi g'oyalar va tajribalarga ochiq munosabatda bo'lish; har qanday cheklovlersiz, erkin fikrlash; bir necha g'oyalarni murakkab tarzda bog'lash qobiliyati [1].

Din Keyt Simonton ijodiy idrokni tadqiq qilib, har qanday nomuayyanliliklarga bardoshli bo'lish tibbiyot xodimlarining murakkab klinik vaziyatlarda harakat qilish imkonini beruvchi muhim omil ekanligini ta'kidlaydi.

Ta'kidlash joizki, divergent fikrlash odamlarga, ayniqsa sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislariiga an'anaviy kognitiv to'siqlarni yengib o'tishga imkon beradi, bu esa, klinik va ta'lim kontekstlarida noan'anaviy va samarali yechimlarni osonlashtiradi.

Xorijlik olimlar, birinchi navbatda, tibbiy ta'limda turlicha fikrlashni quyidagi kontekstlarda tahlil qiladilar:

Klinik fikrlash va qaror qabul qilish. Jerom Kassirer va Pat Kroskerrining ta'kidlashicha, divergent fikrlash shifokorlarga bir nechta imkoniyatlarni ko'rib chiqishga imkon berib, diagnostika xatolaridan qochishga yordam beradi va shu bilan bemorning xavfsizligini ta'minlash va natijalarni yaxshilashga olib keladi.

Fanlararo yondashuv va aloqa. Ma'lumki, hozirgi kunda zamonaviy ta'lim tizimida fanlararo yondashuv bevosita ta'lim sifatini oshirish, shuningdek talabalarda murakkab, hayotiy masalalarni yechish qobiliyatini shakllantirishda asosiy o'rin egallaydi. Bunday yondashuvni tatbiq etish uchun nazariy asoslarga tayanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur nazariy asoslardan biri Govard Gardner tomonidan taklif etilgan Ko'p intellekt nazariyasidir. Uningcha, inson aql-zakovati turli xil intellekt turlari orqali namoyon bo'ladi. Gardner o'z tadqiqotida 8 ta asosiy intellekt turlarini belgilab bergan. Ta'kidlash joizki, u ilgari surgan nazariya ta'limni individuallashtirishga olib keladi. Bunda har bir

talaba uchun mos o'qitish strategiyasi shakllantiriladi. Demak, bunda fanlararo yondashuv qo'llab-quvvatlanadi. Fanlararo yondashuvda turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlik ochib beriladi va ta'lim olish jarayoni bevosita bir-birini to'ldiruvchi jarayon ekanligini tushunishga yordam beradi. Ta'kidlash joizki, Gardner nazariyasi integrativ ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, ijodkor va divergent tafakkurni rivojlantirish, fanlararo muloqot va hamkorlikni yaratishda bevosita nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Tibbiy ta'limda ham talaba yoshlar turli intellekt turlariga ega bo'ladilar. Jumladan, kinestetik intellekt. Bunday intellekt amaliyot, jarrohlik va simulyatsiyalarda samarador natijani belgilaydi. Interpersonal intellekt bu shunday intellekt shakli, unda bemorlar bilan samarali muloqot qilish yaxshi natijaga olib keladi.

Mantiqiy-matematik intellekt tashhislash va tahlil qilish jarayonida asosiy rol o'ynaydi. Intrapersonal intellekt esa, kasbiy o'zini anglash va yetuklikka erishishda yordam beradi. Ta'kidlash joizki, bunday intellektlar turli fanlar, jumladan anatomiya, psixologiya, kommunikativ pedagogika, etika fanlari bilan bog'liq holda rivojlantirilishi maqsadga muvofiq.

Demak, boshqacha qilib aytganda, fanlararo kognitiv ochiqlik bu insonda mavjud bo'lgan turli sohalar o'rtasidagi bilimlar va tajribalarni qabul qilish va integratsiya qilish qobiliyati bo'lib, u tibbiy ixtisosliklar hamda jamoaviy tibbiy faoliyat o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlash orqali birgalikda erishiladigan natijalar samarasini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, divergent tafakkurning tibbiy ta'limdagi ahamiyati beqiyos. Divergent tafakkur ochiq diagnostik yondashuvdir. Chunki u klinik fikrlashni sezilarli darajada rivojlantiradi. Mazkur turdagi tafakkur oldindan shakllangan noto'g'ri fikrlarni oldini oladi, xatolar sonini qisqartirish hamda bemorlarni davolash natijalarini yaxshilashda muhim o'rin tutadi.

Divergent tafakkurni ta'lim dasturlariga uyg'unlashtirish orqali tibbiy ta'limni faol, dinamik ravishda jadal rivojlantirishga erishish mumkin. Albatta, bu yondashuv sog'liqni saqlash sohasidagi yangi muammolarni samarali bartaraf etishga yordam beradi, ta'limiy innovatsiyalar va pedagogik mahoratning uzluksiz takomillashuviga turtki beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Simonton D.K. Creative Thought as Blind-Variation and Selective Retention: Combinatorial Models of Exceptional Creativity. *Physics of Life Reviews*, 2011, vol. 8, no. 2, pp. 207–229.
2. Van der Vleuten C.P.M., Driessen E., Schuwirth L.W.T. Twelve tips for programmatic assessment. *Medical Teacher*, 2015, vol. 37, no. 7, pp. 641–646.
3. Irby D.M., Cooke M., O'Brien B.C. *Educating Physicians: A Call for Reform of Medical School and Residency*. — San Francisco: Jossey-Bass, 2010. — 320 p
4. Bohmer R.G. *Designing Care: Aligning the Delivery of Health Services with the Needs of the Patients*. — Boston: Harvard Business Press, 2009. — 288 p
5. Kolb, D. A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development* / D. A. Kolb. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984. — 256 p.
6. Barrows, H. S. Problem-based learning in medicine and beyond: A brief overview / H. S. Barrows // *New Directions for Teaching and Learning*. — 1996. — Vol. 68. — P. 3–12.
7. Юлдашева, Д. Қ. Тиббий таълимда кейс-технологиялар / Д. Қ. Юлдашева // *Инновацион педагогика*. — 2020. — № 5(41). — Б. 77–81.
8. Шермухамедов, Ш. А. Тиббий таълимда фанлараро ёндашувни шакллантириш / Ш. А. Шермухамедов. — Тошкент: Ilm Ziyoy, 2022. — 198 б.
9. Мирзаев Ш. Э. Тиббий таълимда симуляцион технологиялар / Ш. Э. Мирзаев. — Тошкент: Istiqlol, 2021. — 220 б.
10. Flavell, J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry // *American Psychologist*. — 1979. — Vol. 34(10). — P. 906–911.